
NAVBAHOR MAHALLASINING YANGI BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan mahalla tizimiga berilayotgan katta e'tibor natijasida hududlardagi ko'plab fuqarolar yig'inlari o'z xizmat binolariga ega bo'lishmoqda. Shuningdek, ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilanib, soha xodimlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bugun shahrimizdagi "Navbahor" mahallasining ham yangi binosi foydalanishga topshirildi. Binoning ochilishida shahar hokimi Vosiljon Nazarov, shahar prokurori Sherzodjon Mavlonov va keng jamoatchilik vakillari, shuningdek mahalla ahli ishtirok etishdi.

Mahalla binosi Davlatimiz rahbarining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan qurilib, 750 mln. so'mga yaqin mablag' sarf etildi. Shu kunga qadar ko'p qavatli uyning 2 xonali uyida faoliyat olib borgan xodimlar uchun yangi binoda barcha qulayliklar yaratildi.

2023-09-14 06:08:24